



## YENGIL SANOAT SOHASIDA MUTAXASSIS KADRLARNING KASBIY KOMPETENSIYALARINI TAKOMILLASHTIRISHDA OLIMLARNING ILMIY TADIQOTLAR TAHLILI

*Ubaydova V.E.*

*pedagogika fanlari falsafa doktori (PhD), Yengil sanoat muhandisligi  
va dizayni kafedrasi. Buxoro muhandislik - texnologiya instituti*

**Tayanch soʻzlar:** mutaxassis, kasbiy kompetensiya, tadqiqotchi-muhandis, xorijiy tajriba, raqamlashtirish, kompetentlik, muhandis.

**Ключевые слова:** специалист, профессиональная компетентность, инженер-исследователь, зарубежный опыт, цифровизация, компетентность, инженер.

**Key words:** specialist, professional competence, research engineer, foreign experience, digitalization, competence, engineer.

**Резюме:** Mazkur maqolada yengil sanoat sohasida mutaxassis kadrlarning kasbiy kompetensiyalarini takomillashtirish muhim sifatlar haqida batafsil yoritib beriladi. Kasbiy kompetensiyalarini takomillashtirishni tashkil etish uchun mavjud shart-sharoitlar bilan xorij tajribasi taqqoslanadi. Kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish yoʻlida oʻtkazilgan xorijiy tadqiqotlar ularning taʼriflari tahlili keltirilgan.

**Резюме:** В данной статье подробно описаны важные качества повышения профессиональных компетенций специалистов сферы легкой промышленности. Зарубежный опыт сравнивается с существующими условиями для организации повышения профессиональных компетенций. Дан анализ зарубежных исследований, проведенных по вопросам развития профессиональных компетенций и их определений.

**Summary:** This article describes in detail the important qualities of improving the professional competencies of specialists in the light industry. Foreign experience is compared with the existing conditions for organizing the improvement of professional competencies. An analysis of foreign studies conducted on the development of professional competencies and their definitions is given.

**Kirish.** Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2017 yil 20 aprelda qabul qilingan PQ-2909-sonli qaror, “Oliy taʼlim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi, 2017 yil 27 iyuldagi PQ-3151-sonli qaror, “Oliy maʼlumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi, va 2018 yil 5 iyundagi PQ-3775-sonli qaror, “Oliy taʼlim muassasalarida taʼlim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli

islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorlarning ijrosi oliy ta'lim tizimida yuqori malakali kadrlarni tayyorlash sifati va samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Ta'lim mazmunini yangilashning asosiy birliklaridan biri kompetentlik tushunchasidir. U shaxsning integrativ xususiyatini, boshqacha aytganda, bo'lajak mutaxassisning shaxsiy sifatlari – bilimi, ko'nikmalari, amaliy tajribasi, qobiliyatlari, qadriyat yo'nalishlarini ifoda etadi. Kompetentlik shaxsning kasbiy faoliyatga tayyorgarligini ta'minlaydi va kuchaytiradi.

**Metodlar.** Zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarda kasbiy o'zini o'zi boshqarish jarayonida shaxsning kasbiy rivojlanishining eng to'liq psixologik shakllari, kasbiy kompetentlikning rivojlanish xususiyatlari E.F.Zeyertomonidan o'rganilgan. Olim kasbiy kompetentlikni kasbiy faoliyat tuzilmasining asosiy tarkibiy qismlaridan biri sifatida izohlab, shaxsning yo'naltirilganligi, professional jihatdan muhim fazilatlarini bo'lgan psixofizologik xususiyatlarini baholaydi.

R.Boyasis kompetentsiyani quyidagicha ta'riflagan: "Insonning muayyan tashkilot sharoitida ishlash talablariga javob beradigan tarzda o'zini tutish qobiliyati, bu esa o'z navbatida kerakli natijalarga erishishga olib keladi".

V.N.Vedenskiyning fikricha, "kasbiy kompetensiya" tushunchasi tarkibining kengligi, "professionallik", "malaka", "kasbiy malakalar" kabi keng tarqalgan tushunchalarni birlashtiradigan integral xususiyatlar bilan ajralib turadi. Olimning fikriga ko'ra kompetentlik – bu shaxsiy xususiyatga ega, va malakali professional yoki funksional xususiyatlar majmuasi hisoblanadi.

A.V.Xutorskoy "kompetensiya" va "kompetentlik" tushunchalarini "sinonim ishlatilgan" tushunchalari orasidagi farqni ko'rsatadi. Kompetensiya – shaxsning o'zaro bog'liq xususiyatlarini (bilim, ko'nikma, faoliyat metodikasi), ma'lum mavzular va jarayonlar uchun belgilanadigan va ularga nisbatan sifat jihatidan samarali ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan kompleks hisoblanadi.

Shu bilan birga, V.S.Korshunov har bir talabaning individual xususiyatlarini yetarlicha hisobga oladigan kasbiy jarayondagi fanlarning mobil tizimidan foydalangan holda profil, maxsus va amaliy mashg'ulotlar mazmunini yangilashni taklif qiladi hamda ta'lim jarayoni mazmuni jamiyat talablariga mos ravishda o'zgartirish imkonini beradigan blok-modul asosida kasbiy tayyorgarlik mazmuni va tuzilmasini ishlab chiqish muhimligini ta'kidlab o'tgan.

E.A.Yulpatovanning fikricha, "har xil turdagi vaziyatlarni tashkil qilishni ta'minlaydigan o'quv va kognitiv vazifalarni tahlil qilish va tizimlashtirishda ijodiy, shaxsiy, shaxslararo, intellektual, operativ xarakterli qiyinchiliklarni



aniqlashga imkon beradi”. Shunday qilib, yuzaga keladigan qiyinchiliklar har xil turdagi o‘quv va ishlab chiqarish holatlariga bog‘liq.

N.A.Muslimov va K.Abdullayevalarning fikricha, “kompetentlik – olingan nazariy bilim, ko‘nikma va malakalar majmuasini amaliyotga mustaqil va ijodiy qo‘llay olish darajasi, bu ham talabning amaliyot jarayonida va oliy ta‘limdan keyingi faoliyatida shakllanib boradi”. Olim tomonidan kasb-hunar ta‘limi o‘qituvchilariga qo‘yiladigan majburiy minimal talablar takomillashtirilib, Davlat ta‘lim standartlariga kiritilgan. Shu jumladan, bo‘lajak kasb ta‘limi o‘qituvchilarini kasbiy shakllantirish muammolarini tadqiq etgan. Kasb ta‘limi o‘qituvchisini shakllantirishda pedagogik tizim va faoliyat yurituvchi muhitning o‘zaro ta‘sirlovchi mexanizmi, bo‘lajak o‘qituvchining shaxsiy va kasbiy shakllanganlik darajasini belgilab beruvchi mezonlar ishlab chiqilgan.

Olima 3.K.Ismailova tomonidan o‘quvchilarning kasbiy pedagogik malakalarini shakllantirish muammolari o‘rganilib tegishli tavsiyalar berilgan.

Sh.S.Sharipov tomonidan bo‘lajak kasb ta‘limi va mehnat ta‘limi o‘qituvchilarining ixtirochilik va ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirish metodikasi ishlab chiqilgan.

M.B.Urazovning ilmiy ishida, pedagogning kasbiy kompetentligining tarkibiy tuzilmasida loyiha faoliyatining yangi bilimni individual mahsulotga aylantirish jarayonida, original fikrlash salohiyatini rivojlantirishni ko‘rsatadigan refleksiya va pedagogning mustaqilligini belgilovchi ijodiy darajalar aniqlangan. Shu bilan birga, “Pedagogik fanlar ta‘limida innovatsion texnologiyalarni tatbiq etishda muammoli-modulli va maqsadli yondoshuvlar samaradorligini o‘rganishga qaratilgan noan‘anaviy dars konsepsiyasi ishlab chiqilgan”.

O.A.Qo‘ysinovning dissertasiya ishida “kompetentli yondoshuvlarni qiyosiy tavsiflash asosida o‘quvchilarning individual psixologik xususiyatlari (motivatsion, intellektual, hissiy, irodaviy va psixomotor) hamda kasbiy-pedagogik ijodkorligini rivojlantirish tizimining tuzilmaviy kompetentlarini auditoriya va auditoriyadan tashqari mashg‘ulotlarda rivojlantirish mexanizmlari takomillashtirilgan”.

B.S.Nuriddinov tomonidan kasb ta‘limi o‘qituvchilari malakasini oshirishda faol o‘qitish metodlaridan foydalanish takomillashtirilgan. Respublikamiz pedagog olimlari va metodistlari tomonidan ta‘lim mutaxassis kadrlar tayyorlash sifatini yaxshilash hamda faol ta‘lim metodlarini qo‘llashga oid nazariy va amaliy ahamiyatga ega bo‘lgan bir qancha tadqiqotlar olib borilgan.

Xorijlik olim B.A.Rayzbergning fikricha, “Kompetensiya – bu qonunlar, nizomlar, qarorlar, farmoyishlarga muvofiq muayyan organlar hamda shaxslar ega bo‘lgan yoki ega bo‘lishi kerak bo‘lgan vakolatlar to‘plami” hisoblanadi.

A.A. Smirnov esa “kompetensiyani o‘zaro bog‘liq va o‘zaro bog‘liq bo‘lmagan bilimlar, ko‘nikma va malakalar to‘plami sifatida tushunadi, bu aniq bir kasbiy vazifaning bajarilishini ta‘minlashini aniqlagan”.


S.Uiddet hamda S.Xolifordlar kompetensiyani ko‘plab shaxsiy parametrlardan iborat deb hisoblaydi (motivlar, xarakter xususiyatlari, qobiliyatlari va boshqalar) va bu barcha parametrlar bo‘lishi mumkinligi shaxsning o‘zini qanday tutishiga qarab aniqlash va baholash kerakligini ta‘kidlagan.

A.A.Verbitskiyning fikriga ko‘ra, kompetensiya – bu qadriyatlar tizimida yaxlit dunyoqarashni o‘z ichiga olgan ma‘lum bir yadroni saqlab, vaziyatning qiyinchiliklariga javob sifatida o‘zgarishi kerak bo‘lgan narsani o‘zgartirish qobiliyatidir. Ya‘ni, kompetensiya “inson va dunyo o‘rtasidagi aloqa nuqtasida” topiladi, vaziyatda o‘zini namoyon qiladigan potentsialni tavsiflaydi va shuning uchun kechiktirilgan ta‘lim natijalarini baholash uchun asos bo‘lishi mumkin, yangi madaniy, ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy voqelikni idrok etish imkonini beruvchi tushunish va harakat vositalarini tavsiflaydi. Ushbu xususiyatlardan kelib chiqib, shuni ta‘kidlash mumkinki, “kompetentlik” tushunchasi integrativdir, u tizimning elementlarini emas, balki ular orasidagi bog‘lanishlarni tavsiflaydi. Bu tushunchaning mazmuni va vaziyatlarning turlariga bog‘liq.

Irlandiyalik olim Djon Raven o‘zining tadqiqotida shaxsiy sifatlarning ijtimoiy ahamiyatga ega turlarini, kompetensiyaning yangi parametrlarini qayta baholash zarurligini, yangicha fikrlaydigan va xulq-atvorni rivojlantirishga intilayotganlarni qo‘llab-quvvatlash kerakligini ta‘kidlab o‘tgan.

**Natijalar.** Demak, kasbiy kompetensiyalar, uni qo‘llash ko‘nikmalari va muhandislik muammolarini hal qilish kompetensiyalar sifatida yuzaga keladi.

Jumladan, talaba oliy ta‘lim muassasidagi o‘qish davrida umumkasbiy hamda ixtisoslik fanlarni puxta o‘zlashtirganligi boshlang‘ich kompetensiyalarning shakllanishi bilan birga kasbiy kompetensiyalarga ham ahamiyatini qaratishi lozim. Mazkur kompetensiyalarni rivojlantirishda halollik, vaqt qadrini bilish, tejamkorlik, izlanuvchanlik, qiziquvchanlik, xushmuomalalik, ijodkorlik, bilimlilik, oilaparvarlik kabi shaxsiy sifatlarni rivojlantirish orqali biz vijdonlilik, tadbirlilik, kreativlilik, madaniyatlilik, innovatorlik, ixtirochilik, vatanparvarlik, intellektuallilik, optimistik kabi kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishga erishamiz.



*1-rasm. Talabaga halollikning natijaviy ko'rinislari*

Halollik xarakter xususiyati sifatida tug'ma emas, balki shaxsni tarbiyalash jarayonida orttirilgan. Bu xususiyat shaxs rivojlanishining dastlabki yillaridan boshlab shakllanishi kerak. "Bolaning butun muhiti, ya'ni rivojlanish jarayonini unda adolatli hayot faoliyatiga munosabatda bo'lgan halol shaxsni tarbiyalashga qaratilgan bo'lishi kerak".

Odanga bolaligidan iloji boricha samimiy bo'lishni, o'z fikrini ochiq aytishni, qilmishini tan olishni, jazodan qo'rqmaslikni va shunchaki shunday bo'lishdan uyalmaslikni ko'rsatish va uqtirish kerak. Bolani sodir etilgan nojo'ya hatti-harakatlari uchun javobgar bo'lishga, o'zini aybdor his qilishdan, xijolat bo'lishdan qo'rqmaslikka o'rgatish kerak.

Falsafiy nuqtai nazaridan qaraganda halollik – insonning har narsada samimiylikka, va'dasini bajarishga, odamlarga sodiq qolishga moyilligi sifatida namoyon bo'ladigan ijobiy ma'naviy-axloqiy tafakkur, boshqa odamlarning g'oyalari, narsalari, pullarini o'zlashtirmaslikdir. Halol inson hech kimga ham, hech narsaga hasad qilmaydi, bironing hisobiga yashamaydi, yolg'on gapirmaydi, xabar bermaydi, o'z aybiga iqror bo'lishni biladi.

Bu sifat so'zdan ko'ra amalda ko'rinadi. So'zda yoqimli, lekin qalbi va ishlarida ayyor va yomon niyatli insofsizdir. Halollik – bu Allohning amrlariga muvofiq yashaydigan ochiq, adolatli, vijdonli odamni tavsiflovchi xarakterli xususiyatlarning umumlashtirilgan nomi. Faylasuf aytganidek, "Haqiqatan



ham halol inson oilani o'zidan, Vatanni oiladan, insoniyatni Vatandan ustun qo'yishi kerak".

Halollik – bu insonning eng muhim fazilatlaridan biri bo'lib, rostgo'ylik, prinsiplarga sodiqlik, qabul qilingan majburiyatlarga vafodorlik, ishning to'g'ri ekanligiga subyektiv ishonch hamda boshqalarga va o'ziga nisbatan samimiy bo'lishni o'z ichiga oladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib aytish mumkinki, bo'lajak muhandislarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda ular ongida halollik va vaqtni qadrlash tushunchalarini singdirish orqali shaxsiy sifatlarini takomillashtirish mumkin. Bu orqali talaba halollik orqasidan qilingan mehnat hamisha qadrlanishini hamda o'z jamoasi orasida obro' qozonishida muhim ahamiyat kasb etishini tushunib yetadi. Biz tomonimizdan talabalar o'rtasida o'tkazilgan so'rovnomada ham bu masala atroflicha o'rganilgan (1.1.1. – rasmga qarang).

**Xulosa va tavsiyalar.** Halollik axloqning eng muhim talablaridan biridir. Halollik vijdon bilan bog'lanib, ijtimoiy me'yorlarga rioya qilishga asoslangan bo'lib, odamlarning bir-biriga bo'lgan ishonchining asosi hisoblanadi. Halollik talabi hamkorlikdagi faoliyatda harakatlarni o'zaro muvofiqlashtirish zaruratidan va birga yashaydigan odamlarning ehtiyojlaridan kelib chiqadi. Natijada halol, qalbi pok, vijdonan ishlaydigan, korrupsiyadan qochadigan, vatan ravnaqi uchun o'zini mehnatini ayamaydigan kadr bo'lib tarbiyalanadi.

#### ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 27 iyuldagi PQ-3151-sonli "Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori. [www.lex.uz](http://www.lex.uz)
2. Musurmanova O. Ma'naviy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasi. – Toshkent: O'qituvchi. 1996. – 192 b.
3. Muslimov N.A., Abdullayeva Q. Bo'lajak kasb-hunar kolleji o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishning ayrim masalalari. Oliy ta'lim muassasalari pedagog va boshqaruv kadrlarining malakasini oshirish nazariyasi va oliy ta'lim. Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. - Toshkent: TDPU, 2012. 26-28-b.
4. Semyonov I.N. Refleksiya turlari. Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar. ISSN 2181-1709 Education and innovative research 2021 y. Sp.I. - (P). 296.
5. Urazova M.B. Bo'lajak kasb ta'lim pedagogini loyihalash faoliyatiga tayyorlash texnologiyasini takomillashtirish: Pedagogika fan.bo'yicha doktorlik (DSc) diss. avtoreferati. – T.:2015.-78 b.
6. Weismann I. The Naqshbandiyya: Orthodoxy and activism in a worldwide Sufi tradition. London and New York, 2007. 208 r.
7. Weber M. Die Protestantische Ethik und der «Geist» des Kapitalismus. 1905. / Maks Veber. Протестантская этика и дух капитализма. Ю.Н. Давыдов. — М., «Прогресс», 1990. С. 44–271. // Электронная публикация: Центр гуманитарных технологий. — 10.09.2008.
8. Ubaydova V.E. Bahauddin Naqshband simbol of honesty / ACADEMICIA: An international Multidisciplinary Research Journal Vol.11 Issue 5, May 2021. P. 1193-1197.